

**IJTIMOIIY DAVLATNING KONSTITUTSIYADA MUSTAHKAMLANISHI
VA JAMIYAT SOHALARIDA NAMOYON BO‘LISHI**

Sayfiddinova Rayhonoy Baxriddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti

rayhonoyrayfiddinova@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat tamoyilining konstitutsiyaviy mustahkamlanishi hamda uning jamiyatning turli sohalarida namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida ijtimoiy davlat nazariyasining ilmiy asoslari, yangi tahrirdagi Konstitutsiyada mazkur tamoyilning ifodalanishi, ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohalaridagi amaliy ko‘rinishlari o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi tahlil qilinib, ijtimoiy davlat tamoyillarini yanada takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar

ijtimoiy davlat, Konstitutsiya, inson huquqlari, ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy siyosat.

Аннотация

В данной статье исследуются вопросы конституционного закрепления принципа социального государства в Республике Узбекистан и его проявления в различных сферах общественной жизни. Проанализированы теоретические основы социального государства, нормы новой редакции Конституции, а также практическая реализация данного принципа в сферах образования, здравоохранения, социальной защиты и занятости населения.

Ключевые слова

социальное государство, Конституция, права человека, социальная защита, образование, здравоохранение, занятость.

Abstract

This article examines the constitutional consolidation of the social state principle in the Republic of Uzbekistan and its manifestation in various spheres of society. The study analyzes the theoretical foundations of the social state, the provisions of the new Constitution, and the practical implementation of this principle in education, healthcare, social protection and employment.

Keywords

social state, Constitution, human rights, social protection, education, healthcare, employment.

Kirish. Zamonaviy davlatchilik taraqqiyotida ijtimoiy davlat konsepsiyasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu konsepsiyaning asosiy mohiyati davlat faoliyatining inson

manfaatlari, ijtimoiy adolat va aholi farovonligini ta'minlashga qaratilganligida namoyon bo'ladi. Ijtimoiy davlat fuqarolarning munosib turmush kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishni o'zining ustuvor vazifasi sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasida ijtimoiy davlat qurish g'oyasi yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning qabul qilinishi bilan yangi bosqichga ko'tarildi. Xususan, Konstitutsiyaning 1-moddasida O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat sifatida e'tirof etildi. Mazkur norma davlatning fuqarolar oldidagi ijtimoiy majburiyatlarini konstitutsiyaviy darajada mustahkamlab berdi.

Ijtimoiy davlat nazariyasi XIX asrda Lorens fon Shteyn tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan bo'lib, u davlatning vazifasi jamiyatdagi ijtimoiy tengsizliklarni yumshatish va aholining zaif qatlamlarini qo'llab-quvvatlashdan iborat ekanligini ta'kidlagan¹. Bugungi kunda ushbu konsepsiya inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlashning muhim vositasi sifatida qaralmoqda.

Maqolaning maqsadi O'zbekistonda ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy mustahkamlanishi hamda uning jamiyatning asosiy sohalarida namoyon bo'lish xususiyatlarini tahlil qilishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Ijtimoiy davlat masalasi ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Lorens fon Shteyn ijtimoiy davlat nazariyasining asoschisi sifatida davlatning ijtimoiy vazifalarini asoslab bergan². Jon Roulz esa adolat nazariyasi orqali jamiyatdagi tengsizliklar eng zaif qatamlar manfaatlariga xizmat qilishi kerakligini ta'kidlaydi³.

Mahalliy olimlardan A.X. Saidov davlat va huquq nazariyasiga oid tadqiqotlarida davlat faoliyatining asosiy maqsadi inson manfaatlariga xizmat qilish ekanligini qayd etadi⁴. Z.M. Islomov esa huquqiy davlat va ijtimoiy davlat tushunchalarining o'zaro uzviy bog'liqligini asoslab beradi⁵.

X.T. Odilqoriyev davlatning jamiyat oldidagi mas'uliyatini yoritib, uning asosiy vazifalaridan biri fuqarolarning ijtimoiy farovonligini ta'minlash ekanligini ta'kidlaydi⁶.

O'rganilgan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi sharoitida ijtimoiy davlatning konstitutsiyaviy asoslari va uning amaliy ifodasi masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada qiyosiy-huquqiy, tizimli, formal-huquqiy va tahliliy metodlardan foydalanildi. Qiyosiy-huquqiy metod orqali O'zbekistonning konstitutsiyaviy normalari xorijiy davlatlar tajribasi bilan solishtirildi. Tizimli metod yordamida ijtimoiy davlatning jamiyat sohalaridagi namoyon bo'lish shakllari o'rganildi. Formal-huquqiy metod Konstitutsiya va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarni tahlil qilishda qo'llanildi.

¹ Stein L. *Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich*. Leipzig, 1850. – B. 45.

² Stein L. *Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich*. Leipzig, 1850. – B. 61.

³ Rawls J. *A Theory of Justice*. Harvard University Press, 1971. – P. 75.

⁴ Saidov A.X., Tojixonov U. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2001. – B. 118.

⁵ Islomov Z.M. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2007. – B. 214.

⁶ Odilqoriyev X.T. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2018. – B. 167.

Ijtimoiy davlatning Konstitutsiyada mustahkamlanishi. 2023-yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyada O‘zbekistonning ijtimoiy davlat sifatida e’tirof etilishi mamlakat konstitutsiyaviy taraqqiyotida muhim voqea bo‘ldi. Mazkur norma davlatning ijtimoiy yo‘naltirilgan siyosat olib borishini, fuqarolarning munosib turmush darajasini ta’minlash va ijtimoiy himoya tizimini rivojlantirish bo‘yicha majburiyatlarini belgilaydi.

Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklariga oid normalarning kengaytirilishi ham ijtimoiy davlatning muhim ko‘rsatkichidir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada ta’lim olish, tibbiy yordamdan foydalanish, ijtimoiy ta’minot va mehnat qilish huquqlari yanada mustahkamlandi. Shuningdek, Konstitutsiyada inson qadri, ijtimoiy adolat va teng imkoniyatlar tamoyillarining mustahkamlanishi davlat siyosatining markaziga inson manfaatlari qo‘yilganligini ko‘rsatadi. Bu esa ijtimoiy davlat konsepsiyasining amaliy ifodasidir.

Ijtimoiy davlatning jamiyat sohalarida namoyon bo‘lishi. Ta’lim sohasi ijtimoiy davlatning eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Konstitutsiyada har kimning ta’lim olish huquqi kafolatlangan. Davlat bepul umumiy o‘rta ta’limni ta’minlaydi hamda ta’lim muassasalarining faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. So‘nggi yillarda maktabgacha ta’lim qamrovi kengaytirildi, oliy ta’lim muassasalari soni oshirildi va yoshlarning oliy ta’lim bilan qamrab olinishi sezilarli darajada ko‘paydi. Pedagoglarning huquqiy maqomi Konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi ham ijtimoiy davlat siyosatining muhim natijasi bo‘ldi. Ta’lim sohasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar inson kapitalini rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotini ta’minlaydi.

Sog‘liqni saqlash tizimi ijtimoiy davlatning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Konstitutsiyada har kim malakali tibbiy xizmatdan foydalanish huquqiga egaligi belgilangan. Mamlakatda yangi tibbiyot muassasalari tashkil etilmoqda, tibbiy xizmatlarning sifati oshirilmoqda hamda aholining ehtiyojmand qatlamlariga bepul tibbiy yordam ko‘rsatish tizimi takomillashtirilmoqda. Ayniqsa, onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, nogironligi bo‘lgan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash hamda profilaktik tibbiyot yo‘nalishlariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Sog‘liqni saqlash sohasidagi islohotlar fuqarolarning hayot sifati va umr davomiyligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Ijtimoiy himoya tizimi ijtimoiy davlatning eng yaqqol ko‘rinishidir. O‘zbekistonda kam ta’minlangan oilalarni qo‘llab-quvvatlash, pensiya va nafaqa tizimini takomillashtirish hamda aholining ehtiyojmand qatlamlariga manzilli yordam ko‘rsatish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy himoya milliy agentligining tashkil etilishi ushbu yo‘nalishdagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqdi. “Temir daftar”, “Ayollar daftari” va “Yoshlar daftari” tizimlari orqali aholining muammolarini manzilli hal etish mexanizmlari shakllantirildi.

Bandlik sohasida yangi ish o‘rinlarini yaratish, kasb-hunarga o‘qitish va tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha dasturlar amalga oshirilmoqda. Bu esa fuqarolarning iqtisodiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Takliflar

1. Ijtimoiy huquqlarni amalga oshirishning aniq mexanizmlarini takomillashtirish. Konstitutsiyada belgilangan ijtimoiy huquqlarni amaliyotda to‘liq ta‘minlash maqsadida ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va bandlik sohalarida minimal ijtimoiy standartlarni belgilovchi yagona huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish zarur. Bu fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini real kafolatlashga xizmat qiladi.

2. Ijtimoiy himoya tizimining manzilliligi va samaradorligini oshirish. Aholining ehtiyojmand qatlamlarini qo‘llab-quvvatlashda raqamli texnologiyalar va yagona axborot bazalaridan keng foydalanish, ijtimoiy yordam ajratish mezonlarini takomillashtirish hamda ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish lozim. Bu davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan yordamning adolatli va maqsadli yetkazilishini ta‘minlaydi.

3. Inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish. Ijtimoiy davlatning barqaror rivojlanishi ta‘lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining rivojlanganlik darajasiga bog‘liq. Shu sababli ushbu sohalariga ajratilayotgan mablag‘larni oshirish, zamonaviy infratuzilmani rivojlantirish hamda aholining sifatli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ijtimoiy davlat tamoyilining mustahkamlanishi inson manfaatlarini ta‘minlash, ijtimoiy adolatni qaror toptirish va aholi farovonligini oshirishning muhim konstitutsiyaviy asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Ijtimoiy davlatning ta‘lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya, bandlik va boshqa sohalarida namoyon bo‘lishi fuqarolarning munosib hayot kechirishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlatning samarali faoliyati nafaqat huquqiy normalarning mavjudligi, balki ularning amaliy ijrosi bilan ham bevosita bog‘liqdir. Shu bois ijtimoiy huquqlarni ta‘minlash mexanizmlarini takomillashtirish, ijtimoiy himoyaning manzilliligi kuchaytirish hamda inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish O‘zbekistonda ijtimoiy davlat tamoyillarini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. To‘ldirilgan ikkinchi nashri. – T: O‘zbekiston, 2022.
3. Saidov A.X., Tojixonov U. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2001.
4. Islomov Z.M. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2007.
5. Odilqoriyev X.T. *Davlat va huquq nazariyasi*. – T.: Adolat, 2018.
6. Stein L. *Geschichte der sozialen Bewegung in Frankreich*. Leipzig, 1850.
7. Rawls J. *A Theory of Justice*. Harvard University Press, 1971.